
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI

Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi
Toshkent amaliy fanlar unversiteti
Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
E-mail: bonukodirova6@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavf darajasini pasaytirishda psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlarning samaradorligi eksperimental jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning emotsional holati, stressga chidamliligi, o‘z-o‘zini baholash darajasi hamda suitsidal tendensiyalari psixodiagnostik metodlar asosida o‘rganildi. Eksperimental guruh bilan maxsus psixokorreksion dastur olib borilib, qayta diagnostika natijalari dastur samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, psixoprofilaktik va psixokorreksion mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ruhiy barqarorligini oshirish, depressiv holatlarni kamaytirish hamda suitsidal xavfni pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: suitsidal xulq-atvor, suitsidal xavf, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, yuqori sinf o‘quvchilari, o‘smirlik davri, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, depressiv holat, eksperimental tadqiqot, maktab psixologiyasi, psixodiagnostika.

Annotation. This article experimentally analyzes the effectiveness of psychoprophylactic and psychocorrectional methods in reducing suicidal risk among high school students. During the research, students’ emotional state, stress resistance, self-esteem level, and suicidal tendencies were studied using psychodiagnostic methods. A special psychocorrectional program was conducted with the experimental group, and the results of repeated diagnostics confirmed the effectiveness of the program. The findings revealed that psychoprophylactic and psychocorrectional activities play an important role in increasing emotional stability, reducing depressive conditions, and decreasing suicidal risk among students.

Keywords: suicidal behavior, suicidal risk, psychoprophylaxis, psychocorrection, high school students, adolescence, emotional stability, stress resistance, depressive condition, experimental research, school psychology, psychodiagnostics.

Аннотация. В данной статье экспериментально анализируется эффективность психопрофилактических и психокоррекционных методов в

снижении уровня суицидального риска у старшеклассников. В ходе исследования с помощью психодиагностических методик были изучены эмоциональное состояние учащихся, уровень стрессоустойчивости, самооценка и суицидальные тенденции. С экспериментальной группой была проведена специальная психокоррекционная программа, результаты повторной диагностики подтвердили её эффективность. Результаты исследования показали, что психопрофилактические и психокоррекционные занятия способствуют повышению эмоциональной устойчивости, снижению депрессивных состояний и уменьшению суицидального риска у учащихся.

Ключевые слова: суицидальное поведение, суицидальный риск, психопрофилактика, психокоррекция, старшеклассники, подростковый возраст, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, депрессивное состояние, экспериментальное исследование, школьная психология, психодиагностика.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar ruhiy salomatligini saqlash va psixologik barqarorligini ta’minlash dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida kuzatiladigan emotsional beqarorlik, stress, oilaviy va ijtimoiy muammolar, tengdoshlar bilan munosabatlarning murakkablashuvi ayrim hollarda suitsidal xulq-atvor shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavfni erta aniqlash, uning oldini olish hamda samarali psixologik yordam ko‘rsatish bugungi kunda ta’lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

World Health Organization ma’lumotlariga ko‘ra, suitsid yoshlar o‘rtasida o‘limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab bosqichi bo‘lib, ushbu davrda emotsional sezgirlikning kuchayishi, o‘zini anglash jarayonining faollashuvi hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar psixologik inqiroz holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Natijada ayrim o‘quvchilarda tushkunlik, yolg‘izlik hissi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va suitsidal tendensiyalar kuzatiladi.

Suitsidal xulq-atvorning kelib chiqishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Xususan, oiladagi nosog‘lom muhit, ota-ona nazoratining sustligi, zo‘ravonlik, emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, akademik bosim hamda virtual makondagi salbiy ta’sirlar o‘quvchilarning ruhiy holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli suitsidal xavfni kamaytirishda kompleks psixoprofilaktik va psixokorreksion yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixoprofilaktik ishlar suitsidal xavfning oldini olishga, o‘quvchilarning stressga chidamliligini oshirishga, ijobiy kommunikativ munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Psixokorreksion metodlar esa emotsional zo‘riqishlarni kamaytirish, salbiy fikrlarni bartaraf etish, o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish va shaxsning ichki resurslarini faollashtirishga yo‘naltiriladi. Ayniqsa, trening mashg‘ulotlari, relaksatsion texnikalar, art-terapiya va motivatsion suhbatlar o‘smirlar ruhiy holatini barqarorlashtirishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavf darajasini pasaytirishda psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlarning samaradorligini eksperimental jihatdan asoslash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavfni kamaytirishga qaratilgan psixologik metodlarning samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning psixologik holati diagnostika qilinib, maxsus psixokorreksion dastur ishlab chiqildi hamda uning natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari maktab psixologlari faoliyatida suitsidal xulq-atvor profilaktikasini tashkil etish, o‘quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash va psixologik yordam tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy axamiyat kasb etadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Suitsidal xulq-atvor muammosi psixologiya, psixiatriya, sotsiologiya hamda pedagogika fanlarida eng murakkab va dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida keng o‘rganilgan. Ayniqsa, o‘smirlik davrida suitsidal xavfning ortib borishi yoshlar ruhiy salomatligini muhofaza qilish masalasini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etishni talab etmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan suitsidal xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, uning psixologik mexanizmlari hamda oldini olishning samarali usullari yuzasidan turli nazariy konsepsiyalar ishlab chiqilgan.

Suitsid muammosini ilmiy jihatdan dastlab chuqur o‘rgangan olimlardan biri fransuz sotsiologi Émile Durkheim hisoblanadi. U o‘zining “Suicide” asarida suitsidni individual emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilgan. Olimning fikricha, jamiyatdagi ijtimoiy integratsiya va nazorat darajasining pasayishi insonda yolg‘izlik, ijtimoiy ajralish va ma’naviy bo‘shliq hissini yuzaga keltirib, suitsidal tendensiyalarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Dyurkgeym suitsidning egoistik, altruistik va anomik turlarini ajratib ko‘rsatgan hamda ijtimoiy muhitning shaxs ruhiyatiga ta’sirini ilmiy asoslab bergan.

Psixoanalitik yondashuv vakili Sigmund Freud suitsidal holatlarni insonning ichki agressiyasi va destruktiv instinktlarining o‘ziga yo‘naltirilishi bilan izohlagan. Freyd nazariyasiga ko‘ra, insondagi “Thanatos” - o‘lim instinkti kuchaygan holatda autoagressiv xulq-atvor shakllanadi va bu suitsidal fikrlar hamda harakatlarning

paydo bo‘lishiga olib keladi. Keyinchalik psixoanalitik maktab vakillari suitsidal xulq-atvorning shakllanishida bolalikdagi psixologik travmalar, emotsional yetishmovchilik hamda shaxslararo munosabatlarning buzilishi muhim omil ekanligini ta’kidlaganlar.

Kognitiv yo‘nalish vakili Aaron Beck depressiv holatlar va suitsidal xavf o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asoslagan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, shaxsning salbiy kognitiv qarashlari, umidsizlik hissi, o‘zini qadrsiz deb hisoblash hamda kelajakka nisbatan pessimist munosabat suitsidal tendensiyalarni kuchaytiradi. Bek tomonidan ishlab chiqilgan depressiya shkalasi hozirgi kunda suitsidal xavfni diagnostika qilishda keng qo‘llaniladigan metodikalardan biri hisoblanadi.

Mahalliy psixolog olimlardan O‘.E. Xaitov, Sh.X. Abdullayeva, E.N. Sattarov, G'.Sh. Salomova va boshqa tadqiqotchilar yoshlar psixologiyasi, deviant xulq-atvor, stress holatlari hamda psixologik profilaktika masalalarini o‘rganishgan. Ularning ilmiy ishlari o‘smirlik davrida shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhitning ta’siri va psixologik yordam mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavfning shakllanishiga biologik, psixologik va ijtimoiy omillar kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, oiladagi nizoli vaziyatlar, ota-ona e’tiborining yetishmasligi, emotsional yolg‘izlik, tengdoshlar bilan munosabatlarning buzilishi, akademik bosim, stress va depressiv holatlar suitsidal tendensiyalar rivojlanishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi psixologik bosim, kiberbulling holatlari ham o‘smirlar ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Suitsidal xulq-atvor profilaktikasida psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Psixoprofilaktik faoliyat o‘quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirish, emotsional barqarorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Psixokorreksion metodlar esa o‘quvchilarning salbiy emotsional holatlarini kamaytirish, o‘z-o‘zini baholash darajasini oshirish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish va ijobiy “Men” konsepsiyasini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Bugungi kunda trening mashg‘ulotlari, relaksatsion texnikalar, art-terapiya, kognitiv-xulqiy terapiya elementlari hamda motivatsion suhbatlar suitsidal xavfni kamaytirishda samarali psixologik vositalar sifatida qo‘llanilmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda, yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavfni pasaytirishga qaratilgan

psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlarning samaradorligini eksperimental jihatdan o‘rganish muhim ilmiy-amaliy axamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavf darajasini pasaytirishda psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan eksperimental tadqiqot sifatida tashkil etildi. Tadqiqot Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari orasida olib borildi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning psixologik holati kompleks ravishda o‘rganilib, psixokorreksion dastur ta’siri natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxs faoliyatining tizimli yondashuvi, suitsidal xulq-atvorning biopsixososial konsepsiyasi hamda psixoprofilaktik va psixokorreksion faoliyatning ilmiy-amaliy tamoyillari tashkil etdi. Tadqiqotda diagnostik, eksperimental va statistik tahlil metodlarining o‘zaro integratsiyasi asosida ilmiy natijalarning ishonchliligi ta’minlandi.

Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqotda jami 30 nafar yuqori sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilari teng miqdorda eksperimental va nazorat guruhlariga ajratildi:

- 15 nafar o‘quvchi - eksperimental guruh;
- 15 nafar o‘quvchi - nazorat guruhi.

Ishtirokchilarni tanlash jarayonida ularning yosh xususiyatlari, psixologik holati hamda suitsidal xavf darajasi inobatga olindi. Eksperimental guruh bilan maxsus ishlab chiqilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion dastur olib borilgan bo‘lsa, nazorat guruhi bilan an’anaviy psixologik kuzatuv ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning suitsidal xavf darajasini aniqlash va psixologik holatini baholash maqsadida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Kuzatish metodi

Mazkur metod orqali o‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional reaksiyalari, tengdoshlar bilan munosabatlari hamda ijtimoiy moslashuv darajasi tabiiy sharoitda o‘rganildi. Kuzatish jarayonida o‘quvchilardagi emotsional beqarorlik, ichki zo‘riqish va kommunikativ qiyinchiliklarga alohida e’tibor qaratildi.

Suhbat metodi

Individual va guruhiy suhbatlar yordamida o‘quvchilarning ichki kechinmalari, hayotiy qadriyatlari, stress manbalari hamda psixologik muammolari tahlil qilindi. Suhbat metodidan foydalanish o‘quvchilarning emotsional holatini chuqurroq anglash imkonini berdi.

So‘rovnoma metodi

So‘rovnoma orqali o‘quvchilarning suitsidal fikrlari, o‘z-o‘zini baholash darajasi, stressga chidamliligi hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv xususiyatlari aniqlandi. Mazkur metod tadqiqot ishtirokchilarining psixologik holatini tizimli ravishda baholashga xizmat qildi.

Psixodiagnostik metodlar

Psixodiagnostik metodlar yordamida suitsidal xavf darajasi, depressiv holatlar va emotsional zo‘riqish ko‘rsatkichlari aniqlanib, tadqiqot natijalarining obyektivligi ta’minlandi.

Statistik tahlil metodi

Olingan natijalar matematik-statistik qayta ishlash metodlari asosida tahlil qilindi. Eksperimental va nazorat guruhlari natijalari o‘zaro qiyoslanib, psixokorreksion dastur samaradorligi foiz ko‘rsatkichlari asosida baholandi.

Qo‘llanilgan psixodiagnostik metodikalar

Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi:

1. Suitsidal xavfni aniqlash testi - o‘quvchilarda suitsidal tendensiyalar va autoagressiv holatlarni diagnostika qilish maqsadida qo‘llanildi.

2. Aaron Beck “Depressiya darajasini baholash” metodikasi - depressiv holatlarning darajasi, emotsional tushkunlik va umidsizlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun foydalanildi.

3. O‘z-o‘zini baholash metodikasi - o‘quvchilarning shaxsiy “Men” konsepsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi hamda individual psixologik xususiyatlarini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot metodlarining kompleks qo‘llanilishi o‘quvchilarda suitsidal xavfning psixologik omillarini aniqlash, psixokorreksion ta’sir samaradorligini baholash hamda ilmiy xulosalarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning eksperimental bosqichi yakunida eksperimental va nazorat guruhlarida qayta psixodiagnostik tekshiruvlar amalga oshirildi hamda dastlabki va yakuniy natijalar o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar psixoprofilaktik va psixokorreksion dastur yuqori sinf o‘quvchilarining psixoemotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini namoyon etdi.

Eksperimental guruh o‘quvchilarida psixokorreksion mashg‘ulotlardan so‘ng suitsidal xavf ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada pasaygani kuzatildi. Dastlabki diagnostika natijalarida yuqori suitsidal xavf darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar soni ko‘proq qayd etilgan bo‘lsa, qayta diagnostika jarayonida ushbu ko‘rsatkichning kamaygani aniqlandi. Bu holat o‘quvchilarda hayotiy motivatsiyaning shakllanishi, emotsional qo‘llab-quvvatlashning ortishi hamda psixologik himoya mexanizmlarining rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, Aaron Beck “Depressiya darajasini baholash” metodikasi natijalari asosida eksperimental guruhdagi o‘quvchilarda depressiv holatlar va ichki emotsional zo‘riqish darajasining pasaygani aniqlandi. Psixokorreksion treninglar davomida o‘quvchilarda salbiy fikrlash stereotiplarini kamaytirish, ijobiy emotsional holatlarni shakllantirish hamda stressni konstruktiv boshqarish ko‘nikmalari rivojlantirildi. Natijada o‘quvchilarning ruhiy barqarorligi mustahkamlandi.

Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash darajasida ham ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Eksperimental guruh ishtirokchilarida o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortishi, individual imkoniyatlarini anglash hamda shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi kuzatildi. Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv darajasini yaxshilashga va suitsidal tendensiyalarni kamaytirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, eksperimental guruh o‘quvchilarida emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik ko‘rsatkichlari ham sezilarli ravishda yaxshilandi. Trening mashg‘ulotlari, relaksatsion texnikalar, motivatsion suhbatlar hamda art-terapiya elementlari o‘quvchilarning ichki zo‘riqishini kamaytirib, muammoli vaziyatlarga nisbatan konstruktiv munosabat shakllanishiga yordam berdi. O‘quvchilarda kommunikativ faollikning ortishi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qabul qilishga moyillik va emotsional nazorat ko‘nikmalarining rivojlanishi kuzatildi.

Nazorat guruhida esa psixologik ko‘rsatkichlarda sezilarli statistik o‘zgarishlar qayd etilmadi. Bu holat psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlarning o‘quvchilar ruhiy salomatligini mustahkamlashdagi muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavf darajasini kamaytirishda psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlardan tizimli foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ilmiy natijalar maktab psixologlari faoliyatida suitsidal xulq-atvor profilaktikasini tashkil etish, o‘quvchilarning psixologik salomatligini mustahkamlash va kompleks psixologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavf darajasini pasaytirishda psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlarning samaradorligini eksperimental jihatdan o‘rganishga qaratildi. O‘tkazilgan nazariy tahlil va empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlik davrida suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga ijtimoiy, psixologik va shaxsiy omillar kompleks ta’sir ko‘rsatadi hamda bu holatni bartaraf etishda tizimli psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksperimental guruh bilan olib borilgan psixokorreksion dastur natijasida o‘quvchilarda suitsidal xavf darajasining sezilarli kamayishi, depressiv holatlarning pasayishi, o‘z-o‘zini baholashning oshishi, emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikning rivojlanishi kuzatildi. Nazorat guruhida esa psixologik ko‘rsatkichlarda sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, bu esa amalga oshirilgan psixologik intervensiyaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari psixoprofilaktik va psixokorreksion yondashuvlar o‘quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, suitsidal tendensiyalarni kamaytirish hamda ijtimoiy moslashuvni yaxshilashda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, maktab psixologi faoliyatida erta diagnostika, muntazam profilaktik ishlar va individual psixologik yordam tizimini kuchaytirish zarurligi ta’kidlanadi.

Umuman olganda, olingan natijalar yuqori sinf o‘quvchilarida suitsidal xavfni kamaytirishda psixoprofilaktik va psixokorreksion metodlarni tizimli qo‘llash samarali ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi hamda ushbu yo‘nalishda kelgusida yanada keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zarurligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xaitov O.E. Psixologik kompetentlik asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 112-118-b.
2. Sattarov E.N. Ijtimoiy psixologiya va deviant xulq. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022. - 145-152-b.
3. G‘oziyev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2019. - 201-210-b.
4. Freyd Z. Introduction to Psychoanalysis. - London: Penguin Books, 2001. - 75-89 pp.
5. Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology. - New York: Free Press, 1951. - 145-180 pp.
6. Beck A.T. Depression: Causes and Treatment. - Pennsylvania: University of Pennsylvania Press, 2006. - 55-73 pp.
7. World Health Organization (WHO). Suicide Prevention: Global Report. - Geneva: WHO Press, 2023. - 18-27 pp.

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA